

TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB, ZAMONAVIY TURLARI, TARJIMA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA TADQIQOTLAR

Ilmiy rahbar: **Muhammadiyeva Nodira Xudoyor qizi**

Ingliz tili amaliy tarjima kafedrası o'qituvchisi

muhammadiyeva.nodira@bk.ru

Ummatkulova Nargiza Maftun qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti: ingliz tili

2-kurs talabasi

nargizaummatkulova007@gmail.com

Annotatsiya: Tarjima bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan va xalqlararo muloqotning eng muhim vositalaridan biriga aylanib borayotgan, ko'p yo'nalishli, zamonaviy soha hisoblanadi. Ushbu maqola tarjimaning bir nechta yo'nalishlari hamda bugungi kunda tarjimonlarga qaysidir ma'noda yordamchi hisoblangan raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalarini o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Tarjima turlari, Ketma-ket tarjima, Sinxron tarjima, Visual tarjima, Machine translation, CAT tools, raqamli texnologiyalar.

Abstract: Translation today is rapidly developing and becoming one of the most important tools of intercultural communication. It is a multifaceted and modern field. This article focuses on several branches of translation and examines the use of digital technologies, which in a certain sense serve as helpful tools for translators today.

Key words: Translation types, Consecutive interpreting, Simultaneous interpreting, Visual translation, Machine translation, CAT tools, digital technologies.

Аннотация: Перевод в настоящее время стремительно развивается и становится одним из важнейших средств межкультурной

коммуникации. Это многоаспектная и современная область. Данная статья посвящена изучению нескольких направлений перевода, а также вопросам использования цифровых технологий, которые в определённой степени являются вспомогательными инструментами для переводчиков сегодня.

Ключевые слова: Виды перевода, последовательный перевод, синхронный перевод, визуальный перевод, машинный перевод, CAT-инструменты, цифровые технологии.

Globalashuv jarayonining tezlashuvi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi, o'zaro hamjihatlik va hamkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortib borishi hamda axborot texnologiyalarining rivojlanishi tarjimashunoslikning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lib, madaniyatlararo munosabatlarda mustahkam bir ko'priikka aylanib bormoqda. XXI asr tarjima amaliyoti o'zining nafaqat lingvistik jarayon bo'lganligi, balki texnologiya va raqamli kommunikatsion vositalar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib borayotgani sabab o'tgan asrlarga qaraganda anchagina farq qilmoqda.

Tarjimashunoslikda tarjimaning quyidagi turlari keng tarqalgan:

1. Ketma-ket tarjima;
2. Sinxron tarjima;
3. Visual tarjima.

Ketma-ket tarjima bu og'zaki tarjimaning muhim turlaridan biri hisoblanadi. Bu turdan asosan, muzokaralar, konferensiyalar kabi siyosiy uchrashuvlarda foydalaniladi. Bu shunday turki, tarjimon nutqni tinglab, umumiy mazmunini tarjima qilib tinglovchilarga yetkazib berishi kerak. Tarjimon kerakli faktlarni qayd qilib borishi mumkin.

Sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng qiyin turi hisoblanadi. Bu turdan ham siyosiy uchrashuvlarda foydalaniladi. Tarjimon belgilangan joyda o'tirib, maxsus moslamalar orqali eshitayotgan nutqni ayni vaqtning o'zida tarjima qilib ketishi kerak

hisoblanadi. Bu turda tarjimondan tezlik va samaradorlik talab qilinadi. Ko'rinib turibdiki, bu turdagi tarjima jarayoni ancha stressli bo'ladi.

Visual tarjima turida tarjimon tarjima qilishi kerak bo'lgan nutqning yozma shakli bilan tanishib chiqadi. Bu esa ancha qulaylik olib keladi. Ammo ba'zida buning imkoni bo'lmasligi mumkin. Bu tur ham sinxron tarjima turiga o'xshab ketadi. Tarjimondan e'tiborli bo'lish talab qilinadi. So'zlovchi yozma matndan chiqib ketmayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Tez suratda rivojlanib borayotgan texnologik taraqqiyot davrida tarjima sohasi o'zgaruvchan evolyutsiyani boshdan kechirmoqda. Yangi texnologiyalarning integratsiyasi an'anaviy tarjima jarayonlarini soddalashtiribgina qolmay, balki innovatsion imkoniyatlarni yuzaga keltirdi, tarjimonlarning rolini ilgari tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada kengaytirdi. Til va texnologiya masalasiga kirib borar ekanmiz, tarjimonlar endi oddiy tilshunos emasligi ayon bo'lmoqda; ular raqamli asrda madaniyatlararo muloqotning ajralmas yordamchilariga aylanmoqdalar. Tarjimonlar ushbu texnologik yutuqlarni qabul qilar ekan, ular tobora kengayib borayotgan, globallashtirilgan dunyoda yangi faoliyatlar va imkoniyatlarga moslashib, ushbu sohaning oldingi saflarida bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.

Tarjimada texnologiyalardan foydalanish ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlarga egadir. Ijobiy tomonlari shundaki, tarjimon turli **machine translation** yoki **CAT tools** kabi texnologiyalarni ishlatib vaqt tejashi, ishining samaradorligini oshirishi va ko'proq aniqlikka ega bo'lishi mumkin. Salbiy tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, faqat texnologiyalarga tayanib qolish tarjima sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, bular hissiyotga boy bo'lgan matnlarda namoyon bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar asosan, ma'lumotlarni saqlab, qayta ishlaydi. Bu esa ma'lumotlarning maxfiyligiga ta'sir qilishi turgan gap.

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlar tarjimaning har qanday turlarida tarjima jarayonida ham, tarjimon ishini yengillashtirish maqsadida yaratilgan raqamli texnologiyalar bilan ishlashda ham ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi. Faqat o'z kasbining mutaxassisi bo'libgina bu muammolarni hal qilib, vaziyatdan chiqa oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulkaxxorova, N. R. (2024). *Yangi axborot texnologiyalarining tarjima va tarjimonlarning kengayishi va rivojlanishidagi o'rni*. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 41–46. Kokand University.
2. Egamnazarova, R. A. q., & Xolboboyeva, A. S. (2024). *Tarjima turlari va ulardagi qiyinchiliklar: Og'zaki va yozma tarjimaning asosiy mohiyati, ketma-ket, sinxron, visual tarjimaning afzalliklari va qiyinchiliklari*. Tarjimashunoslik: Muammolar yechimlar va istiqbollar ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 363–365.
3. Mo'minjonova, S. D. q., & Gafurova, N. I. (2024). *Tarjima turlari*. Modern Science and Education: Achievements and Development Prospects, 94–95.